operaları jaratıldı. D.Chimarozanidiń ataqlı «Jasırın neke» operası menen avtor dóretiwshiliginde Italyansha buffa operası rawajlanıwın juwmaqladı. J.B.Lulli tárepinen jaratlǵan francuz lirikalıq tragediyası kompazitor óliminen soń abırayı túse baslaǵan dramaturgiya menen birge divertismentke aylanıp qaldı. Francuz komediya operası óziniń ataqlı tulǵaların F.A.Filidor, P.A.Monsine, A.Gretri kelbetlerin taptı. 1752-jılı Pergolezinniń «Slujanka» operasınıń qoyılıwın francuz komediya operasınıń rawajlanıwına berilgen sonǵı túrtki boldı.

Ádebiyatlar

1. Adeliya Xusinovna Trigulova. Xorijiy musiqa adabiyoti. Toshkent-«ILMZIYO»-2009.
2. V.Galatckaya. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti.
3. З.М.Мирхайдарова. Жаҳон халқлари мусиқа санъатининг ривожланиш жараёни.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада опера жанрининг пайдо бўлиши ва ривожланиш тарихи ҳақида сўз этилади.

РЕЗЮМЕ. В данной статье говорится об истории возникновения и развития оперного жанра.

SUMMARY. This article talks about the history of the emergence and development of the opera genre.

UDK.332, 8901(2023)

ZAMONAVIY AKTYORLIK SAN'ATI MAKTABINING ASOSCHISI K.S.STANISLAVSKIYNING O'RNI

G.Bekniyazova - *katta o'qituvchi*

L.Urazmbetova – *docent*

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar. teatr, aktyorlik, maktab, an'ana maktabi, aktyor, sahna nazariyasi, qo'shiqchilar va balet.

Ключевые слова. театр, актерское мастерство, школа, школа традиций, актер, теория сцены, певцы и балет.

Key words. theater, acting, school, school of tradition, actor, stage theory, singers and ballet.

Har qanday san'at turi qatori teatr san'ati maktabining muvaffaqiyati avvalo to'g'ri tanlov va ana shu tanlov asosida teatr san'ati maktabida bilim olayotgan qobiliyatli yoshlarning ma'naviy komilligiga bog'liqdir. Chunki o'zi komillikka intilmagan ijodkor o'z ortidan butun bir tomoshabinlar avlodini ergashtira olmaydi. Komil inson, yetuk shaxs tarbiyasi eng muhim va hamisha dolzarb bo'lib kelayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo'lda ko'plab bitiklar, maqolalar, risolalar yozilgan va bundan keyin ham yoziladi.

Birinchi o'zbek dramaturgi Mahmudxo'ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadur» degan so'zlariga tayanadigan bo'lsak, komil inson tarbiyasida adabiyot va boshqa barcha san'at turlari qatori teatr san'atining ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham teatr san'ati, aktyorlik yo'lini tanlagan yoshlar oldida turgan muammolarni hal qilishda esa hech qachon shoshilmaslik kerak. Agar talaba taqdir taqozosi bilan adashib aktyorlik yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirib qolgan bo'lsa (aktyorlikni yoshlikda kimlar orzu qilmaydi), o'z vaqtida bu xatoni tuzatish yo'llarini ko'rsata bilish lozim. Maqsad – talaba keyinchalik afsus qilmasin, hayotda o'z o'rnini topib olsin. Teatr atalmish san'atning ilk pillapoyasi aktyor tarbiyalash jarayoni haqida izchil, tabiiy ketma-ketlikni saqlagan holda biror qo'llanma yoki kitob yozish, uslubiyatni xuddi dars jarayonidagidek qog'ozga tushirish qiyin va og'ir vazifa. Chunki, bu yorug' olamda qancha odam bo'lsa, hammasining fe'l-atvori o'zgacha, bir-biriga o'xshamaydi. Qolaversa, bu yo'lda avvalo tajribaga, talabaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ijodiy muloqot qilishga, uning o'zligini kashf etishiga ko'maklashish prinsipiga tayanch ma'qulroqdir. [1.Abdullayeva, B.215] Talabalik saflarga qabul qilingan yoshlarga teatr san'ati, uning mashaqqatlari, aktyorlik kasbining o'ziga xos qiyinchiliklari va afzalliklari borasida xolisona ma'lumot berilishi shart. Shundan keyingina tadbiriy ravishda navbatdagi jarayonga o'tish lozim. Bu jarayon aktyorlik mahorati texnikasi (psixotexnika), san'at turlari, shu jumladan, musiqali teatrning o'ziga xos xususiyatlari, teatr etikasi, badiiy saviya, aktyorlik mahoratining unsurlari, musiqali teatr aktyorligi yo'nalishi talabalari uchun alohida, mukammal shakldagi musiqiy ritmik tarbiya (aynan musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalash jarayoni dramatik teatr aktyorini tarbiyalash jarayonidan shu jihati bilan farq qiladi, chunki, musiqali teatrda baholash va

hatti-harakat qilish jarayoni kompozitor bergan takt, o‘lchamlarga bog‘liq bo‘ladi, aslida teatr san’ati shartli san’at, lekin musiqiy teatrning shartlilik darajasi yuqoriligi shu bilan izohlanadi), mashq etyudlar, mukammal etyudlar, rol ustida ishlashni o‘rganishdan va eng asosiysi, sahnaviy ijodning nazariy bilimlarini sahna nazariyasini ham o‘zlashtirishdan iboratdir. «Chunki sahna nazariyasi san’at maktabiga ilk qadam qo‘ygan talabaning aktyorlik kasbi mahorati sirlarini ongli ravishda o‘rganishiga imkon yaratadi». [2.Zaxava, B.71-79]

Aktyorlik kasbida nazariya muhim o‘rin tutadi. Ushbu sahna nazariyasini o‘rganish har qanday professional aktyor uchun zaruratdir. Har bir fanda nazariya bevosita amaliyotga yo‘l ochganidek, aktyorlik mahoratida ham nazariy asoslar amaliyot bilan bog‘lanib, to‘ldirib boriladi. Aktyordan sahna nazariyasini o‘qib o‘rganish talab etiladi, shuningdek, aktyorlik texnikasini o‘zlashtirish, puxta egallash lozim bo‘ladi. Bunga esa ma’lum amaliy mashqlar asosida bosqichma-bosqich erishib boriladi. Aktyorlik texnikasining asoslari dastlab birinchi va ikkinchi kurslarda chuqur o‘rgatilishi lozim. So‘ngra darslar sekin-asta pyesa va rol ustida ishlash, sahna obrazini yaratish usullarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. [3.Stanislavskiy, B.93-99] Shuni alohida ta’kidlash kerakki, pedagog har bir talabaga uning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashuvi lozim. Shundagina uning o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari saqlanib qoladi, sahnada tabiiy organik hatti-harakat qilish xislati mustahkamlanadi va rivojlanib boradi. Bugun «berilgan shart-sharoitda – men» talabi bilan tabiiy ishlayotgan talaba ertaga «berilgan shart-sharoitda mening rolim» va nihoyat, timsol qiyofasida ham tabiiy hatti-harakat qila oladigan ijodkor bo‘lib yetishadi.

Masalan, U.Shekspir o‘zining «Gamlet» fojeasida asar fabulasiga mashhur «Qopqon» sahnasini kiritadi. Bu sahnada Gamlet daydi aktyorlarga tomosha paytida bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni beradi. Bu jarayon xuddi rejissyorning aktyorga nazariy vazifa berishi kabi xislatga ega. Lekin bu zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, aktyorni nazariy jihatdan qurollantirishning ilk ko‘rinishi sifatida qolib ketdi. Faqat K.S. Stanislavskiy sahna nazariyasi masalalarini, aktyorlik texnikasi borasidagi fikrlarni ilm darajasiga olib chiqdi va bu «Stanislavskiy sistemasi» nomi bilan butun dunyoda tan olindi. Chunki sistemaning maqsadi – aktyorlarga sahnada rol orqali «inson ruhiyatining hayotini» jonli, badiiy haqiqatga yo‘g‘rilgan holda yaratishiga yordam berishdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni amalga oshirish niyatida ham izlanishlar olib borildi va teatr maktabi yaratildi. Bu maktab shakl va mazmun birligini talab etadi. [4. Maxmudov, B.254] Har bir pedagog teatr san’ati maktabiga sodiq qolgan holda, o‘zining ko‘p yillik tajribasidan kelib chiqib o‘ziga xos ta’lim berish uslubini shakllantiradi. Bu jarayon ataylab qilinmaydi. Bu yerda, biz yuqorida aytganimizdek, ya’ni aktyorlikning tabiat bergan jihatlari bo‘lgani singari, pedagoglikning ham tabiat bergan ma’lum xislatlari yordamga keladi. Chunki aktyorlik qobiliyati bo‘lmagan shaxsni, qanchalik urinmagin, aktyor qilib shakllantirishning imkoni bo‘lmagani singari, pedagoglik xislati bo‘lmagan odamda ham bu xususiyatni shakllantirib va rivojlantirib bo‘lmaydi.

Agar teatrni ishlab chiqarish tarmog‘i deb tasavvur qilsak, uning mahsuloti yaxshi spektakl bo‘lishi kerak. Yaxshi spektakl tug‘ilishi uchun esa yaxshi xomashyo zarur. Teatr san’atida bu xomashyo *dramaturg* tomonidan tavsiya etilayotgan pyesa hisoblanadi. Yaxshi dramaturgiya bilan qurollanmagan teatr xuddi sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi, oxir-oqibat kasodga uchrovchi korxona misolidir. Demak, yaxshi dramaturgiyasiz teatrni, u yerda ijod qilmoqchi bo‘lgan aktyorlar va rejissyorlar faoliyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dramaturgiya teatr faoliyatini ta’minlab beruvchi san’at turi hisoblanadi. San’at turi deyishimizga sabab, har qanday yaxshi sahna asari aqliy, hissiy, g‘oyaviy-badiiy ijodning mahsuli hisoblanadi va teatrning asosini ta’minlab beradi. Boshqa tomondan, yaxshi dramaturgiya nafaqat tomoshabinga chuqur ma’naviy ozuqa beradi, balki rejissyor va aktyorlar ansamblining ijodiy o‘sishiga, yana da kamolga yetishiga xizmat qiladi.

Yaxshi pyesa, avvalo, unda ko‘tarilgan mavzu-muammoning aktualligi, saxnalarning tinimsiz kurashlar va hatti-harakatlarga asoslanib qurilgani bilan ajralib turadi. Bu borada ustozimiz A.Sayfiddinovning bir gaplari sira ham yodimdan chiqmaydi: «Aktyorlik mahoratidan xabardor, sahnaning changini yutgan va shu bilan birga qalam tebratishga layoqati bor insondan yaxshi dramaturg chiqishi mumkin». [4. Maxmudova, B.65]

Professor M.Abdullayevaning «Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati» kitobida teatrning ajralmas bo‘lagi rejissuraga oid juda o‘rinli fikr keltirilgan. «Teatr haqida so‘z borar ekan uning yana bir muhim bo‘lagi – *rejissyor*ga to‘xtalmoq talab etiladi». Spektakl yaratilish jarayonini rejissyor boshqaradi. Biroq bu teatrdagi ijodiy jarayonda tazyiq o‘tkazuvchi boshliq degani emas, albatta. Rejissyor teatr jamoasining, har bir

a’zosining ijodiy imkoniyati, ichki va tashqi organikasini bilishi, his qilishi lozim. Saxnada biron-bir obrazni, ya’ni o‘zga bir insonning qiyofasini tabiiy, ishonarli ravishda jonlantirishi uchun aktyor avvalo o‘z shaxsiyati nomidan, shaxsiy fantaziyasiga suyanib ish ko‘rishi lozim. Bu haqda E.Umarov «Obrazlar dunyosida» asarida «Artist daramaturgdan pyesani olib, o‘z qahramonini ko‘z oldiga keltiribgina qolmay, shu obrazga mos keladigan tabiiy harakatlar, gapirish xususiyatlarini izlaydi. O‘zini ana shu qahramonning o‘rniga qo‘ygan artist sahnada estetik voqelik yaratadi, ya’ni notanish bir kimsa obraziga «jon» kiritadi». deb yozadi. Yana u: «Aktyor ijrosi tabiiy va ishonarli bo‘lishi uchun u o‘z fantaziyasi va qahramonning sahnadagi hatti-harakati mantiqiga suyalishi kerak. Aktyor qanchalik dramaturg niyatini to‘g‘ri tushungan, qanchalik hayotiy tajribaga boy bo‘lsa, shunchalik uning san’ati tabiiy va haqqoniy bo‘ladi. Ammo, uning o‘z rolini sahnadagi talqini sahna mantiqidan chetga chiqmasligi kerak. Bunday ijro haqiqatsiz chinakam aktyor san’ati bo‘lishi mumkin emas». [5.M.Ismoilov B.192]

Stanislavskiy ta’limotiga ko‘ra ham aktyor sahnada obraz yaratish uchun o‘z shaxsiy kechinmalaridan to‘g‘ri foydalana bilishni o‘rganadi. Bu aktyorga organik ijod muhit sharoitini yaratadi. Aktyor eng elementar harakatni bajarish uchun ham rol hayoti sharoitini aniq baholay olishi kerak. Masalan, qayerdan kelganini va qayerga ketayotganini bilmay turib kishi oddiy jismoniy harakat bilan eshikni ochishni ishonarli bajara olmaydi. Voqealar aniqlanishi davomida asarning berilgan shart-sharoiti va aktyor obrazining unda tutgan o‘rni, hatti-harakati ahamiyati ham oydinlasha boshlaydi.

Ma’lumki, asarning sahnadagi har bir repititsiyasi jarayonida yangidan-yangi faktlar, hatti-harakatlar, fikr-g‘oya, vazifalar aniqlanib kashf etilib boradi. Bu jarayonda aktyorning vazifasi kecha topilgan, bajarilgan hatti-harakatni bugun ham ko‘r-ko‘rona qaytarish, shtamplashdan qochishi kerak. Biroq, dunyo bo‘yicha aksariyat teatrlarda yuqoridagi xatolik ko‘pchilik aktyorlarning odatiy holiga aylangan. Pedagog yosh talaba aktyorlar ongida har bir repititsiya jarayoniga yangidan yondoshib, har bir hatti-harakatdan tabiiylik, haqiqiylik, mantiqni qidirishni odat qilish lozimligini singdirib borishi kerak. Kecha topilgan jismoniy hatti-harakat bugun yangi uslubda, yangi mantiqqa suyangan xolda ijro etilishi lozim. [6. L.Urazmbetova, B.54]

Aktyorlar rol ustidagi ish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi kerak, ya’ni har bir ijodiy jarayonda kechagi yoki o‘tgan kungi natijani qaytarishga urinmay jonli, tabiiy organik hatti-harakatni amalga oshirishga intilishlari kerak. Repititsiya jarayonlarida har bir topilgan harakatni takrorlash davomida uni har turli yangi topilmalar bilan boyitishni va shu maqsadda hatti-harakatning yangi shart-sharoitini o‘ylash, izlash kerak.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik maxorati.“Tafakkur qanoti” nashriyoti-T.: 2014. 215 bet.
2. K.S.Stanislavskiy. Aktyor o‘z ustida ishlashi. 93-99 betlar.
3. Maxmudov J., M.Chexov. Aktyor texnikasi, tarjima (2016 y.). 254 bet.
4. Maxmudova X. Aktyorlik maxorati fani majmuasidan mashqlar matni. -T., 2016 y. 65 bet.
5. M.Ismoilov. Sahna Pardozi. 2004 yil. 154 bet.
6. L.Urazmbetova. Aktyor sheberligi. T.Fan ziyosi. 2019.

REZYUME. Teatr san’ati maktabiga fidoyilik ko‘rsatgan har bir o‘qituvchi o‘zining ko‘p yillik tajribasidan kelib chiqib, o‘ziga xos dars uslubini shakllantiradi. Bu jarayon qasddan emas. Bu yerda, yuqorida aytganimizdek, harakatning tabiatga xos tomonlari bo‘lganidek, pedagogikaga ham xos jihatlar tabiatning o‘ziga xosdir.

РЕЗЮМЕ. Каждый педагог, посвятивший себя школе театрального искусства, разрабатывает свой собственный стиль преподавания, основываясь на своем многолетнем опыте. Этот процесс не является преднамеренным. Здесь, как мы уже сказали выше, так же, как есть аспекты актерского мастерства, присущие природе, так и присущие педагогике аспекты присущи самой природе.

SUMMARY. Each educator, while committed to the school of theatrical arts, develops his or her own style of teaching based on his or her many years of experience. This process is not intentional. Here, as we have said above, just as there are aspects of acting that are inherent in nature, so there are inherent aspects of pedagogy that are inherent in nature.